

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Sayitkulov G'iyo'siddin Davronqul og'li**

*ORIENTAL universiteti Samarqand korpusi magistranti*

[saiyitkulovgiyo'siddin@gmail.com](mailto:saiyitkulovgiyo'siddin@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lismuassasalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish uslublari haqida ma'lumotlar va oliy ta'lismida HEMIS ning o'rni. Boshqaruv tizimida hozirgi kundagi yangiliklar va olib borilayotgan ishlar hamda imkoniyatlar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *raqamli texnalogiya, raqamlashtirish, an'anaviy va masofaviy ta'lismi, sirtqi ta'lismi, HEMIS dasturi.*

Yurtimizda so'nggi yillarda ta'litmiga tubdan o'zgartirish kiritish va ta'lismifatini baholash hamda raqamli ta'limga ko'proq e'tibor berish va uni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlisihlar olib borilmoqda. Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF - 5712- sonli Farmonida "PISA"(The

Programme for International Student Assessment) o'quvchilarini baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2021- yilda birinchi 70 talikka, 2025- yilda 60 talikka va 2030- yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutilgan. [1]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 8- dekabrdan

"Xalq ta'limi tizimida ta'lismifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 997- sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini xuzuridagi Ta'litmifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida " Ta'litmifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish " Milliy markazi " tashkil etildi.[2]

Prezidentimizning 2020- yil 5- oktabr- dagi PF 6079- sonli " Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi farmonida raqamli dunyoda texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'lismi rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda.

Jumladan, raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy- tadqiqot ishlarini rivojlantirish, talabalarni yangi texnologiyalar yaratishga targ'ib qiluvchi respublika tanlovlari va

tadbirlarini o'tkazish, masofaviy ta'lim platformasini ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish va amalga oshirish ishlari ko'zda tutilgan.

Oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish konsepsiysi.

Oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

a) kadrlar tayyorlash sifati va ko'lamenti inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalarini quyidagi toifalarga ajratish va ularni rivojlantirish strategiyalarini belgilash;

birinchi toifa — flagman universitetlar (O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti);

ikkinchi toifa — ilm-fan va innovatsion markaz funksiyasini bajaruvchi hududiy oliy ta'lim muassasalari;

uchinchchi toifa — sohalar uchun ta'lim va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha tayanch muassasalar rolini bajaruvchi tarmoq oliy ta'lim muassasalari;

b) institut maqomidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyati ko'lamenti kengaytirish va institutsional salohiyatini kuchaytirish orqali ularni universitetga aylantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

v) oliy ta'lim muassasalarini ularning quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqib bosqichma-bosqich yiriklashtirib borish;

g) tajriba tariqasida davlat ulushining 51 foizdan kam bo'lmagan qismini saqlab qolgan holda ayrim davlat oliy ta'lim muassasalarini (oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno) davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ularda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish;

d) oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha hujjat loyihalarini ishlab chiqish va muhokama etishda Respublika oliy ta'lim kengashi nufuzi va faolligini oshirish, mas'uliyatini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik nazoratining zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

e) oliy ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish, davlat interaktiv xizmatlari ko'lamenti kengaytirish;

j) oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishda strategik rejalashtirish tamoyillarini joriy etish, bunda vasiylik kengashlari mas'uliyati va rolini oshirish;

z) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi funksiyalarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, bunda ta'lim sifatini baholashning yangi mexanizmlarini joriy etish, kadrlar buyurtmachilari va talabalar o'rtasida o'tkazilgan milliy so'rov natijalarini chuqur tadqiq qilish orqali muammolarni bartaraf etish, davlat va nodavlat

ta'lismuassasalarida ta'lismifatini ta'sirchan instrumentlar yordamida nazorat qilib borish, bitiruvchilar sifati va ularning ixtisosligi bo'yicha ishga joylashish masalalariga e'tibor qaratish;

i) ta'lismifatini nazorat qilish va oliy ta'lismuassasalari reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilash;

y) oliy ta'lismuassasalarida ishga qabul qilish va yuqori lavozimlarga tayinlashda oliy ta'lismifizimi rivoji uchun o'zining munosib hissasini qo'shuvchi kadrlarni tanlash, ularning faoliyati, professional xususiyatlari, soha oldidagi alohida xizmatlarini adolatli va xolisona baholashni nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyillarini qo'llash, rahbarlik lavozimlariga tayinlashda gender tengligi tamoyillariga qat'iy rioya qilish;

k) oliy ta'lismuassasalari rahbarlik lavozimlariga zaxira kadrlarni shakllantirish, maqsadli o'qitish va tayyorlash samaradorligini oshirish;

l) oliy ta'lismuassasalari rahbar xodimlarini rotatsiya qilish mexanizmini joriy qilish.[3]

Oliy ta'lismifizimida raqamlashtirish ishlarida 2025- yil yanvar oyida yangi islohatlar amalga oshirildi. Jumladan, stependiya tizimi onlayn tizimga o'tkazildi. Bunday raqamlashtirish ishlarining amalga oshirilishi turli xil korruption holatlarning oldini olishga va talabalar uchun ko'plab qulayliklar yaratishga yordam beradi.

Bundan tashqari 2025- yil may oyida Oliy Ta'limganing sirtqi ta'lismifizimida ham yangi islohat amalga oshirildi. Bunga ko'ra 2025-2026-o'quv yilidan ta'limguning sirtqi shakliga qabul tugatildi va kunduzgi ta'limgandan boshqa muqobil ta'lismif shakllari bo'yicha qabul kvotalari oshiriladigan bo'ldi. Bu prezidentimizning ta'lismifatini ta'minlashga doir farmonida ko'zdautilgan 2025-2026- o'quv yilidan Oliy Ta'lismif tashkilotlarining muqobil ta'lismif shakllari bo'yicha umumiyligini qabul kvotasini kunduzgi ta'lismif shakli qabul natijasining 50% dan oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Bundan tashqari magistratura bosqichida muqobil ta'lismif shakllari asosida ilmiy - pedagogik kadrlarni tayyorlashga ruxsat beriladi.

Oliy Ta'lismif tashkilotlarida muqobil ta'limguning kredit- modul tizimiga asoslangan maqbullahtirilgan kunduzgi ta'lismif shakli bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yildi.

Muqobil ta'lismif shakllariga talabalarni belgilangan me' yordan ortiqcha qabul qilish litsenziya talab va shartlarini qo'pol ravishda buzish deb baholanadi hamda litsenziyani bekor qilish uchun asos hisoblanadi.

Shuningdek, har bir ta'lismif tashkiloti tarkibida ichki ta'lismifatini auditini amalga oshirishga mas'ul ichki ta'lismifatini nazorati bo'limlari tashkil etiladi.

Farmonga ko'ra, 2025-yil 1-iyuldan yangi tashkil etiladigan ta'lismif tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish 2 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqichda faoliyatni boshlash uchun o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari o'rnatilgan tartibda litsenziyalanadi, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkilotlari xabardor qilish tartibida tashkil etiladi;

2-bosqichda ta'lim tashkilotlarining kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladigan ta'lim dasturlari maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi.

Bunda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tmagan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim oluvchilarni o'qishga qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi. Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tmasdan qabul jarayonini amalga oshirish litsenziya talab va shartlarini qo'pol ravishda buzish deb baholanadi va ta'lim tashkilotiga berilgan litsenziyaning bekor qilinishiga asos bo'ladi.

Oliy Ta'lim vaziri Kongratbay Sharipov eskirgan sirtqi ta'lim shaklini yanada moslashuvchan va zamonaviy modellarga, shu jumladan, masofaviy ta'limga almashtirish zarurligini aytgandi.

Uning so'zlariga ko'ra, bugungi kunda ko'plab talabalar o'qishni ish bilan birga olib bormoqda va sirtqi yoki kechki bo'limlarda tahsil olmoqda, biroq bunday shakllar "zamonaviy talablarga javob bermaydi".

"Dunyoda boshqa yondashuvlar — masofaviy, uzaytirilgan ta'lim qo'llanmoqda. Ya'ni talaba dasturni to'rt yilda emas, balki besh-olti yilda, o'zi uchun qulay bo'lgan sur'atda, fanlar va o'qish yillarini tanlagan holda o'tashi mumkin", — degandi vazir.

Sirtqi ta'limni masofaviy ta'limga o'tkazish masalasi so'nggi besh yil davomida muhokama qilindi. 2020-yilda Oliy ta'lim vazirligining sobiq rahbari Inomjon Majidov sirtqi ta'lim 100 foiz, kechki ta'lim 50 foiz masofaviy bo'lishini ta'kidlagan edi. Bu haqda 2023-yilda vazirlik boshqarma boshlig'i Abduvali Xoliqurov ham ma'lum qilgandi.

Talabalar bir yilda atigi ikki oy davom etadigan darslarda [sirtqi ta'lim shaklida] kerakli bilimlarni o'zlashtira olmayotgani tanqid qilinmoqda. Bunday e'tirozlar qaysidir ma'noda o'rinni. Aslida, sirtqi ta'lim qaysidir sohada ishlaydigan, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan odamlar uchun joriy etilishi kerak. Lekin mamlakatimiz ta'lim muassasalarida bu ta'lim yo'nalishidan hamma foydalanishi mumkin", — degandi Abduvali Xoliqurov.

Sirtqi ta'lim tizimi saviyasiz kadrlarni qisqartirish maqsadida tugatildi.

Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmonining 3-bobida Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari haqidadir.

Oliy ta'lim tizimining rivojlanishi mazkur Konsepsiya ilovasida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga asoslanadi.

Quyidagilar oliy ta'lismizini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

oliy ta'lism bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lismizini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

oliy ta'lism bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

ta'lism jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

oliy ta'lism muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish;

yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;

oliy ta'lism muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;

oliy ta'lism muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish;

oliy ta'lism tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash.[4]

Oliy Ta'lism tizimini raqamlashtirish ishlarida ayni kunlarda ta'lism sohasida faol qo'llanib kelinayotgan "Oliy ta'lism jarayonlarini boshqarish – HEMIS" axborot tizimi ko'plab qulaylik va imkoniyatlarni o'zida jamlay oлgani bois bugungi ta'lism tizimida muhim ahamiyatga egadir. HEMIS axborot tizimini takomillashtirish hamda talabalarga qulaylik yaratish maqsadida HEMIS axborot tizimining mobil ilovasi ishlab chiqildi. Mobil ilova "Oliy ta'lism jarayonlarini boshqarish - HEMIS" axborot tizimining OTM qismi bilan integratsiya qilingan bo'lib, mobil ilovadan foydalanish talabalarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Elektron Talaba ID guvohnomasi  
 O'qish joyidan ma'lumotnoma olish imkoniyati  
 To'lov shartnomasini yuklab olish imkoniyati  
 Elektron diplom va ilovani yuklab olish imkon  
 Talabaga tegishli hujjatlarni yuklab olish imkon  
 Reyting daftarchani ko'rish hamda yuklab olish imkon  
 O'zlashtirish ko'rsatkichini kuzatib borish imkon  
 Buyruqlarni yuklab olish imkon  
 Davomatni ko'rib borish imkon  
 Dars jadvali bilan tanishish imkon  
 Nazorat jadvalini ko'rish imkoniyati  
 Fanlar ro'yxatini ko'rish imkoniyati  
 Fan topshiriqlarini yuklab olish hamda bajarilgan vazifalarni professor-o'qituvchilarga  
 yuborish imkoniyati  
 Fan resurslaridan foydalanish imkon  
 Unilibrary elektron kutubxonasidan foydalanish imkon  
 Bugungi kunda HEMIS mobil ilovasidan 600 mingdan ortiq foydalanuvchi foydalanib kelmoqda.  
 O'zbekiston ham Oliy Ta'lim tizimida kredit-modul tizimidan foydalanmoqda.  
 Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan obekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida universitet talabalari har doim o'qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Modul — bu bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi. Mazkur tizimning oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga

chiqarish hamda talabaning mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi ko'hna qit'aning deyarli barcha oliy o'quv yurtida amaliyotga joriy etilgan.[5]

Oliy ta'lif muassasalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish zamonaviy davrning dolzarb talablariga javob beradigan kompleks yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan xulosa qilish mumkinki, innovatsion yechimlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv tizimini isloh qilishda akademik erkinlik, shaffoflik va natijalarga yo'naltirilgan strategiyalar asosiy ustuvorliklar bo'lishi lozim. Yangi boshqaruv modelida rahbarlar, professor-o'qituvchilar va talabalar fikrini inobatga olish, shuningdek, zamonaviy boshqaruv amaliyotlarini joriy etish tizimning moslashuvchanligini ta'minlaydi. Davlat siyosati, ichki tartib va tashqi hamkorlikni mustahkamlash orqali oliy ta'lif muassasalarida innovatsion va raqobatbardosh boshqaruv tizimini yaratish mumkin. Ushbu tadbirlar natijasida oliy ta'lif sohasida sifatlari boshqaruv tizimini shakllantirish, xalqaro miqyosda raqobatbardosh ta'lif muassasalarini barpo etish hamda mamlakatning ilmiy va madaniy salohiyatini oshirishga erishish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni
2. Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 8- dekabrdagi 997- sonli Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiysi
4. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
5. Qurbonov.F.B. Oliy Ta'lim muassasalari tizimini boshqarishda HEMISning roli.